
RISHTONLIK O'QITUVCHI VETNAMDA E`TIROF ETILDI

2002 yil yurt fidoyisi, butun umrini yurtdoshlari o'y-tashvishi bilan bog'lagan mehribon Hamida aya To'xtasinova va uning oilasi uchun juda omadli keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yaqinda Hamida To'xtasinova yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi 2017 yil 14 iyuldagi Qaroriga muvofiq, mamlakatimizning iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, yurisprudentsiya va boshqa sohalarida ko'p yillar davomida halol va samarali mehnat qilgan pensiya yoshidagi bir guruh yurtdoshlarimiz qatori "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan edi.

Bugun esa uning nabirasi Doston Siddiqov Vyetnam davlatida tashkil etilgan "Yil o'qituvchisi" tanlovida ishtirok etib, g'olib sifatida bosh mukofotini qo'lga kiritdi. Ushbu xabar farishtali-sarishtali, nabiralarning shodon qiyqirig'i ostida umrguzaronlik qilayotgan muborak onaxon xonadonida haqiqiy bayramni taqdim etdi. Bir necha yildan beri xorijiy mamlakatlarda o'qituvchi sifatida faoliyat yuritayotgan Doston Siddiqovning boshqa mamlakatda yil o'qituvchisi etib tan olinishi barchamizni behad quvontirdi.

- O'g'imning muvaffaqiyatini eshitib, behad xursand bo'ldik, deydi uning otasi Sherozjon Siddiqov. Doston bolaligidan ilmga mehr qo'ygan edi. U, uch yoshida harflarni tanib, o'zi mustaqil yoza olardi. Qilingan tinimsiz mehnatlari nihoyat o'z mevasini berdi. Farzandim uchun xursandman. Ota-ona uchun farzandining muvaffaqiyatini ko'rishdan boshqa baxt bo'lmasa kerak.

Ma'lumot uchun: Dostonbek Siddiqov 1990 yil 29 iyun kuni Rishton tumanida tug'ilgan. FarDU ingliz tili fakultetini tamomlagan. Hozirda Vetnam mamlakatidagi iqtidorli bolalar maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi.

2022-07-08 20:11:21